

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TO‘SQINLIK QILUVCHI MUAMMOLAR HAQIDAGI QARASHLARI

Yangiboyeva Muxlisa

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Muallif xalqning ijtimoiy va ma‘naviy rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan jaholat, ilm-ma‘rifatdan uzoqlashish, isrofgarchilik, loqaydlik hamda eski qarashlarga mutaassibona berilish kabi muammolarni yoritadi. Behbudiy ushbu illatlarning millat taraqqiyotiga zarar yetkazishini asoslab, ularni bartaraf etishning muhim vositasi sifatida ta‘lim, ma‘rifat va zamonaviy dunyoqarashni ilgari suradi. Maqolada adibning jamiyatni isloh qilish va xalq farovonligini ta‘minlashga qaratilgan g‘oyalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, ma‘rifatparvarlik, taraqqiyot, jaholat, ta‘lim, islohot, milliy uyg‘onish, ijtimoiy muammolar, zamonaviy bilim, ma‘naviy taraqqiyot.*

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi, “Turkistonjadidlarining otasi” nomiga sazovor bo‘lgan buyuk shaxs, xalqimiz uchun ahamiyatli bo‘lganko‘plab asarlar va maqolalar muallifi. Uning qalamiga “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarishkitobi”, 1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabijug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobat ulatfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblar mansub. Shuningdek, bugungacha Mahmudxo‘ja Behbudiyning 300 ga yaqin maqolalari aniqlandi. Bular qatorida uning “Bizni kemirguvchi illatlar” maqolasi ham bor.

“Bizni kemirguvchi illatlar” maqolasi 1915-yil “Oyna” jurnalining 13-sonida nashr ettirilgan. Maqolada, avvalo, bizni kemirguvchi illatlar nimalar ekanligi bayon etilgan. Unda shunday deyiladi: “Bizni kemirguvchi illatlar deganda, zaxmu maraznimi gumon etarsiz? Yoinki, sil, sil-ar-iya va maxavliknimi dersiz? Yo‘q, andan ham yamonroq va andan ham jonxarosh, bevoya, xonavayron va g‘arib etguvchi bir dard, biz — turkistoniylarni shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg‘acha istilo etib, butun tirikligimizg‘a sorilgon va bizni inqirozg‘a va tahlakag‘a va jahannamg‘a yumalaturgon to‘y, azo ismindagi ikki qattol dushmani derman”¹. Maqolada o‘z davri uchun va bugungi kun uchun ham muhim bo‘lgan masalalar yoritilgan. Xususan, to‘y va ta‘ziya uchun insonlar pul va vaqtlarini sarflashdagi xato va kamchiliklari yoritilib, shariat ko‘rsatgandan ortiqcha

vaqt va mablag‘ isrofgarchilik sifatida ta’riflanadi. Ushbu maqola xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod uchun vaqtni qadrlashda o‘ziga xos targ‘ibot sifatida yozilgan. Navro‘z va ko‘pkari kabi bayram va musobaqalarni nishonlash uchun ko‘plab insonlar borishadi. Ammo bu bayram va musobaqalarda bir necha kishilar vafot etadi, ayollar beva, bolalar yetim, onalar farzandsiz qolishadi. Shuningdek, bularga qatnashgan insonlarning vaqtlari ham zoe ketadi, ular o‘z ishlaridan qoladilar, buning natijasida qishloq joylarda dehqonchilikka ziyon yetadi. Bu kabi illatlar haqida Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z maqolasida shunday deydi: “Bir oy muqaddam Samarqandni Panjakent qasabasidagi navro‘z sayrig‘a mushak-fishang otishdan uchgina kishi o‘lub, o‘ndan ziyoda kishi majruh bo‘ldi. Ko‘pkari va uloq chopmoqlik odati mal‘unonasiq‘a har viloyatdan har sana yuzlar ila kishi oxiratg‘a ko‘char, na qadar kishi majruh va ma‘yub bo‘lar”. “Bir do‘konchi, bir gulkor, bir faqirhol, bir kosib uchun bu to‘y va ta‘ziyalar o‘lumdan qatig‘durki, muning uchun bechora har kun o‘lur. Har kun o‘lgon ila-da qutulmasl ”- deydi Mahmudxo‘ja Behbudiy. Albatta, bu to‘y uchun qadimda ham va hozir ham xalqimiz ancha yillar davomida mablag‘ yig‘adi va qarz ham oladi. Ko‘p yosh oilalar shu qarz natijasida ajrashib ham ketishmoqda. Obro‘-e‘tiborga, mol-dunyoga shunchalik mehr qo‘yganlik natijasida qancha yoshlar baxtsiz bo‘lmoqda. Ota-onalar “Orzu-havas qilganman, boshqalardan kam qilmasdan to‘y qilamiz” yoki “Qizimni sepiga buncha narsa qilish kerak”- deyдилar va juda katta mablag‘ sarflaydilar. Ammo baxt pul bilan sotib olinmaydi va baxt pulga bog‘liq emas! Bu illat shunchalik ildiz otgan ekanki, hatto hozirgi davrda ham bundan qutulishning iloji bo‘lmayapti. Albatta, bularning hammasi nafs natijasidir. Bugungi kunda bunday ishlarni oldini olish va zarur choratadbirlar ko‘rish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma‘raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida ” qo‘shma qarori qabul qilindi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan fatvolar chiqarilmoqda. Maqolada ta‘ziya marosimlari uchun ham katta mablag‘lar sarflash va bir necha oylab aza tutish qoralanadi. Chunki Payg‘ambarimiz kundan oshiq aza tutishdan qaytarganlar. Vafot etgan inson nomidan ehsonlar qilish o‘rniga, “payshanbasi”, “qirqi”, “ko‘k kiyish” kabi bir nechta marosimlarga uchun katta mablag‘lar sarflaydilar. Ammo bu marosimlar islom shariatida bor yoki yo‘q ekanligi haqida o‘ylab ham ko‘rmaydilar. Bu haqida Mahmudxo‘ja Behbudiy shunday deydi: “Biz bo‘lsa, o‘luk va to‘y uchun haftalar, hatto, oylar ila ishdan qolurmiz. Holbuki, shore‘i a‘zam, payg‘ambari akram sallollohi alayhi vasallam hazratlari o‘lganni tez ko‘mub va ko‘mgandan so‘ngra tez tarqalib, ishg‘a ketmoqg‘a va o‘lukxona xalqini uch kundan ziyoda ta‘ziya tutmasg‘a, qaro kiymasg‘a, kir, falokat bo‘lmasg‘a amr etarlar3 ”. Qadimda xalqimiz mana shunday illatlar qariga tushib qolganligi uchun ham, o‘z molmulklaridan ayrilganlar. Xususan, tarixiy dalillar shuni ko‘rsatadiki, xalqimiz bayram va

marosimlar qilish uchun yerlarini arzonga ham g‘ayridinlarga sotishgan. O‘sha davrda Qrimda bir tanob yer o‘ng ming so‘mdan uch ming so‘mgacha sotilgan bo‘lsa, bizning xalqimiz 200 so‘mga sotib, “yerni xo‘p pulga urdim” deb shodlanar edi. Bu kabi yomon illatlar xalqimizni chulg‘ab olganligi va bularning yomon oqibatlariga sabab bo‘lishi mumkinligi ushbu maqolada aks ettirilgan. Bu maqola doimo biz uchun o‘ziga xos eslatma va ibrat bo‘lib xizmat qilishi kerak. “Bizni kemirguvchi illatlar” maqolasi yoshlarimizning tarbiya uchun katta ahamiyatga egadir. Chunki maqola yoshlarimizni vaqtni qadrlash, ilm olish, foydali ishlar bilan shug‘ullanish, mol-dunyoga o‘ch bo‘lmaslik, baxt pulga bog‘liq emasligi, zararli narsalarni tark etish, vatan taraqqiyoti uchun kurashishga undaydi. Imom Buxoriy aytganlaridek: “Imdan o‘zga najot yo‘q”. Zero, bizni kemiruvchi ba‘zi bir illatlardan qutulsak, taraqqiy etgan Yevropani ham ortda qoldiramiz. Shuni tushunishimiz kerakki, bu dunyo faqat mol-dunyo va boylikdan iborat emas. Mahmudxo‘ja Behbudiy aytganlaridek: “To‘y va ta‘ziyag‘a sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va-din yo‘lig‘a sarf etsak, anqarib ovropoyilardek taraqqiy etarmiz”.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek ma‘rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida millat taraqqiyoti, xalq farovonligi va ijtimoiy taraqqiyot masalalariga alohida e‘tibor qaratgan mutafakkirdir. Uning publitsistik faoliyati va ijtimoiy qarashlari markazida jamiyat rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatish masalasi turadi. Behbudiy yashagan davr Turkiston xalqlari hayotida murakkab siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar kechgan davr bo‘lib, bu holat millatning o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilash zaruratini yuzaga keltirgan edi. Shu sababli adib o‘z asarlarida xalqning taraqqiyotiga g‘ov bo‘layotgan illatlarni tanqid qilish bilan bir qatorda, ularni bartaraf etishning amaliy choralarini ham ilgari suradi. Behbudiy qarashlarida jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi eng asosiy omillardan biri jaholat hisoblanadi. Mutafakkirning fikricha, ilm-fan va ma‘rifatdan uzoqlashgan xalq zamonaviy dunyo taraqqiyotidan ortda qolishga mahkumdur. U xalqning qoloqligi va ijtimoiy muammolarining asosiy sababini bilimning yetishmasligi bilan izohlaydi. Behbudiy nazarida ilm insonning nafaqat shaxsiy kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotining ham asosiy omilidir. Shuning uchun u yangi usuldagi maktablar ochish, ta‘lim tizimini isloh qilish va yosh avlodni zamonaviy fan yutuqlari bilan tanishtirish masalalarini dolzarb vazifa sifatida ko‘radi. Uning fikricha, ta‘lim tizimining rivojlanishi milliy taraqqiyotning poydevorini tashkil etadi. Mutafakkir xalq orasida keng tarqalgan beparvolik va loqaydlik holatlariga ham tanqidiy munosabat bildiradi. U ayrim kishilarning jamiyat hayotidagi muammolarga befarq qarashi, o‘z kelajagi va millat istiqboli haqida yetarli darajada qayg‘urmasligini taraqqiyotga salbiy ta‘sir qiluvchi omillardan biri sifatida baholaydi. Behbudiy insonning faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishi, jamiyatdagi o‘zgarishlarga daxldorlik hissini tuyishi va umumiy taraqqiyot yo‘lida

mas’uliyat bilan harakat qilishi zarurligini ta’kidlaydi. Uning nazarida millat ravnaqi har bir shaxsning ma’naviy yetukligi va ijtimoiy faolligiga bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 280 b.
2. Ehtiyoji millat. – Toshkent: Sharq, 2006. – 192 b.
3. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. – 400 b. (Behbudiy haqidagi ma’lumotlar: 112–135-betlar).
4. Jadidchilik. – Toshkent: Sharq, 2004. – 320 b. (Behbudiy faoliyatiga oid qism: 85–118-betlar).
5. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 384 b. (Behbudiy ijodi: 56–74-betlar).
6. Jadidchilik va jadid adabiyoti. – Toshkent: Universitet, 2007. – 256 b. (Behbudiyga bag‘ishlangan bob: 91–107-betlar).
7. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. – Toshkent: Fan, 1978. – 512 b. (Jadid adabiyoti va Behbudiy faoliyatiga oid materiallar: 286–309-betlar).